FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA SHAHAR HOKIMINING QARORI

2022 - yil 25 - noyabr 511-11-169-Q/22 Farg'ona shahar hokimligi

Farg'ona shahridagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2011 yil 4 apreldagi 101-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan Farg'ona shahri xududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Farg'ona shahridagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Shahar hokimining o'rinbosarlari (M.Axmadjon, Yu.Yusupov), Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi (M.Sattorov), Obodonlashtirish boshqarmasi (D.Xodjayeva)lar:

shahardagi barcha mahalla raislari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me'yorlariga qat'iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta'minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Obodonlashtirish boshqarmasi (D.Xodjayeva) hamda qabristonlarning ma'muriyati:

xizmatlar uchun qat'iyan belgilangan tariflar bo'yicha hisob-kitob qilgan

holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, ob’yektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror “Farg‘ona tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Farg‘ona shahar hokimining o‘rinbosari M.Axmadjon zimmaciga yuklansin.

Farg'ona shahar hokimi **V.Nazarov**

Farg‘ona shahar hokimining
2022 yil 25 noyabrdagi
511-11-169-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona shahridagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	BXMga nisbatan xisoblanadi
1.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar katta o‘lchamda)	1 o‘ringa	50%
2.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar kichik o‘lchamda)	1 o‘ringa	40%
3.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	bepul
4.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar 3yoshgacha)	1 o‘ringa	bepul
5.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	bepul
6.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	bepul